
Sayyor qabullarda murojaatlar yechimini topmoqda

Qumtepa mahalla fuqarolar yig'inida Qo'shtepa tumani hokimi, tuman 1-sektori rahbari Ilyos Valeriyevich Novikovning mahalla fuqarolari uchun sayyor qabuli bo'lib o'tdi.

Qabul davomida qish mavsumi yaqinlashib, kunlar sovichi natijasida fuqarolarning asosiy muammolariga aylangan elektr energiyasi, gaz masalalari va ichimlik suvi bo'yicha ko'plab murojaatlari qabul qilindi.

Har bir fuqaroning murojaati joyida ko'rib chiqildi va tegishli tashkilot rahbarlari tomonidan murojaatchilarning oldida muammoni qonuniy hal etilishi bo'yicha aniq muddatlari aytib o'tildi.







2019-11-08 17:11:33